
“QIZILARIQ” MAHALLASIDA “SAYXUNOBOD” TAJRIBASI ASOSIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR O’RGANILDI



Bugun “Qizilariq” mahallasida bo’lgan Qo’shtepa tumani hokimi Anvarjon Abdullayev mahallada “Sayxunobod” tajribasi asosida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Tuman hokimi ushbu mahallada yashovchi Xusanboy Xomidov hamda Ro’zixon Xakimovalarning xonadonlarida bo’ldi. Bu xonadonlarga “Sayxunobod” tajribasi asosida hudud rahbarlari va birlashtirilgan tijorat banklari ko’magida imtiyozli kredit berilib hunarmandchilik faoliyati yo’lga qo’yilgan. Qolaversa tomorqa ishlari va parrandachilik bilan ham shug’ullanishadi.

Tuman rahbari tomonidan “Sayxunobod tajribasi” asosida aholi tomorqalari va xonadonlardagi imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali, aholi daromadlarini oshirish, hududda hunarmandchilikni rivojlantirish bo’yicha mahalla yettiligiga ko’rsatmalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-07-18 19:28:59